

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

В.А.Каримов	
Изменения содержания общего количества гликогена, солерасторимых белков и общих липидов по сезонам года	440
V.A.Karimov	
Changes to the content of the general the amount of glycogen, salt-soluble proteins and total lipids by season	443
Б.А.Ниязметов, В.А.Каримов	
Состояние физиологического торможения обмена веществ и энергии у сусликов и пустынных черепах.....	446
Y.Q.Qayumova	
Farg'ona tumani ichki zovur va kollektorlar suvlari ixtiofaunasi.....	451
Y.Q.Qayumova, D.E.Urmonova	
Farg'ona tumani zovurlari ixtiofaunasining tur tarkibi.....	457
Y.Q.Qayumova	
Chodaksoy daryosi ixtiofaunasining tur tarkibi.....	461
Y.Q.Qayumova H.H.Rahmatullayeva	
Rishton tumani zovurlari ixtiofaunasining tur tarkibi.....	466
D.I.Komilova	
Qoradaryo o'rta oqimi ixtiofaunasining taksonomik reviziysi	470
K.X.G'aniyev, A.M.Mirzaliyev	
Shimoliy-sharqi O'zbekiston vohasi daraxt va butalariga jiddiy zarar keltiruvchi shira turlarining bioekologik xususiyatlari	475
A.M.Mirzaliyev	
Farg'ona vodisida tarqalgan <i>Eriosoma lanigerum</i> shirasining molekulyar tahlili	479
M.Sh.Mirzosharipova, D.Q.Ernazarova, F.N.Kushanov	
Zea mays turiga mansub namunalardan foydalanishning ilmiy ahamiyati va istiqbollari	483
M.Muhammedov	
Makkajo'xori parvonasi (<i>Ostrinia nubilalis</i> hübnér, 1796)ning morfologik xususiyatlari	487
M.Muhammedov	
Kungaboqar parvonasining (<i>Homoeosoma nebulella</i> denis & Schiffermüller, 1775) morfologik xususiyatlari	492
Г.И.Гайратова, М.Ш.Назаров, М.Х.Маъмуроева	
Некоторые биологические и морфометрические показатели плотвы (Rutilus lacustris) в верхней течении р.сырдарьи	496
G.I.G'ayratova, M.Sh.Nazarov	
Sirdaryo yuqori oqimi ixtiofaunasiga oid dastlabki ma'lumotlar	500
S.O.G'ofurova, M.Sh.Nazarov	
Isfayramsoyda tarqalgan qizilparra (<i>Scardinius erythrophthalmus</i>) ва кумуш товонбалик (<i>Carassius gibelio</i>)ning morfometrik ko'satkichlari tahlili.....	503
M.Obidov, D.Botirova, Z.Shoxnoza, E.Dilfuza	
Biological control of cotton disease by bacterial agents.....	507
M.V.Obidov	
<i>Echinacea purpurea</i> (L.) moench. o'simligining ahamiyati va yetishtirish texnologiyasi bo'yicha ma'lumotlar	513
M.V.Obidov, J.E.Meliqo'ziyeva	
Dorivor ingichka bargli lavanda (<i>Lavandula angustifolia</i> mill) o'simligining biologik singdirish koeffitsiyenti	517
M.V.Obidov	
Och tusli bo'z tuproqlarda elementlar biogeokimyozi.....	520
M.V.Obidov	
<i>Silybum marianum</i> (L.) Gaertn. o'simligining kimyoiyi tarkibi va ahamiyati	525
Д.Х.Рахимова	
Загрязнители окружающей среды и их влияние на здоровье человека	529
Д.Х.Рахимова	
Интеллектуальная рыбная ферма — будущее аквакультуры.....	534
Г.Х.Собирова, А.А.Алишеров	
Фенолы и их роли в лечении и контроле диабета.....	539



UO'K: 59/595.752

**FARG'ONA VODIYSIDA TARQALGAN *ERIOSOMA LANIGERUM* SHIRASINING
MOLEKULYAR TAHLILI**

**МОЛЕКУЛЯРНЫЙ АНАЛИЗ ТЛИ *GANIOSOMA LARGERUM*,
РАСПРОСТРАНЁННОГО В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ**

**MOLECULAR ANALYSIS OF THE APHID *GANIOSOMA LARGERUM*, COMMON IN
THE FERGANA VALLEY**

Mirzaliyev Abdujabbor Mamatyusuf o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Dunyo bo'yicha *Eriosoma lanigerum* tur shirasida juda ko'p soni ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekistonda usbu tur shira asosiy zararkunanda sifatida o'rjanilgan lekin uning taksonomik o'rni borasida o'tkazilgan tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Shu sababli ushbu maqolada *E. lanigerum* shirasini DNK barkoding usulida tekshirilib, olingan natijalar tahlil qilingan.

Аннотация

Во всем мире проводится большое количество научных исследований тли вида *Eriosoma lanigerum*. В Узбекистане этот вид тли изучен как основной вредитель, однако исследования его таксономического положения практически отсутствуют. Поэтому в данной статье тля *E. lanigerum* была исследована методом штрих-кодирования ДНК, а так же проанализированы полученные результаты.

Abstract

A large number of scientific studies of the aphid species *Eriosoma lanigerum* are being carried out all over the world. In Uzbekistan, this aphid species has been studied as a major pest, but studies of its taxonomic position are practically absent. Therefore, in this article, the aphid *E. lanigerum* was studied using the DNA barcoding method, and the results obtained were analyzed.

Kalit so'z: Aphididae, *Eriosoma* Leach, *Eriosoma lanigerum*, *Malus domestica*, *Eriosoma americanum*, *Aphis nerii*, *Eriosoma crataegi*.

Ключевые слова: Aphididae, *Eriosoma* Leach, *Eriosoma lanigerum*, *Malus domestica*, *Eriosoma americanum*, *Aphis nerii*, *Eriosoma crataegi*.

Key words: Aphididae, *Eriosoma* Leach, *Eriosoma lanigerum*, *Malus domestica*, *Eriosoma americanum*, *Aphis nerii*, *Eriosoma crataegi*

KIRISH

Eriosoma Leach, 1818 urug'i Aphididae oilasi Eriosomatinae kenja oilasi Eriosomatini tribasiga mansub bo'lib, urug' vakillari Yevrosiyo, Shimoliy Amerika hamda Avtraliya va uning atrofidagi orollardan qayd etilgan (GBIF, 2023). Urug' bugungi kunda o'z ichiga 46 tadan 53 tagacha (GBIF, 2023) bo'lgan turni birlashtiradi. Ushbu urug' vakillaridan bo'lgan *E. lanigerum* turi yer yuzida keng tarqalgan zararkunanda tur hisoblanadi.

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston mintaqasi uchun ushbu tur mahalliy shira turlari hisoblanmaydi. Qizil qon shirasi (*E. lanigerum*) manbalarga ko'ra ilk marotaba Makraziy Osiyo mintaqasiga 1905-yilda kirib kelgan [1]. Ayni vaqtida uni mamlakatimizning ko'plab mintaqalarida uchratish mumkin.

Dunyo miqyosida *E. lanigerum* turning taksonomik o'rnini aniqlash borasida o'tkazilgan tadqiqotlar yani molekulyar darajada keng qamrovli o'rjanilgan[2].

Mazkur tur O'zbekiston hududida olma (*Malus domestica*) daraxtlarning asosiy zararkunandi sifatida o'rjanilganligiga qaramay, uning taksonomik o'rni borasida o'tkazilgan tadqiqotlar deyarli uchramaydi.

Mazkur maqolada tadqiqot davomida ushbu turning taksonomik o'rniqa aniqlik kiritish maqsadida Farg'ona vodiysida uchrovchi *Eriosoma* populyatsiyalarini zamonaviy zoologik o'rganish uslublaridan biri bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot hududidagi *Eriosoma* populyatsiyalarining tur maqomini qat'iy belgilash maqsadida DNK barkoding metodidan foydalanildi [3]. Buning uchun Farg'ona viloyati Bag'dod tumani hududdagi olma daraxtidan *Eriosoma* namunalari tirikligicha 96% li etil spirit bilan fiksatsiya qilindi va molekulyar-genetik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti tarkibidagi Molekulyar zoologiya laboratoriyasiga yuborildi.

Tadqiqot davomida sekvens qilingan Mitochondrial sitoxrom oksidaza I (COI) geni nukleotidlari ketma-ketligi Basic Local Alignment Search Tool (BLAST) [4] va BOLD Systems [5] onlayn molekulyar aniqlagichlari yordamida tekshirildi. BLAST programmasidan foydalanishda 'Nucleotide BLAST' buyrug'iidan foydalanildi. Bunda tekshiriluvchi nukleotidlari ketma-ketligi *.fasta fayl ko'rinishida yuklandi hamda 'Databases' qismidan 'Standard databases (nr etc.)' tanlandi, tekshirish uchun ('optimize for') esa eng o'xhash ketma-ketlik (Highly similar sequences metablast) algoritmi belgilandi. BOLD Systems platformasida esa 'Identification' qismida 'Animal identification [COI]' bo'limi tanlandi. 'Historical Databases' uchun 'Current' bo'limi belgilandi, 'Species Level Barcode Records' algoritmi tanlanib, tekshiriluvchi nukleotidlari ketma-ketligi *.fasta fayl shaklida yuklandi. Har ikkala onlayn aniqlagichlarda ham natijalar solishtirib ko'rib xulosa qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

E.lanigerum turini DNK barkoding uchun mitochondrial COI genining 658 (bp) nukleotid juftligi amplifikatsiya qilinib, sekvenlash jarayonidan olinga natijalar tahlil etildi. Olingen natijalar dastlab BLAST hamda BOLD onlayn dasturlari yordamida tekshirib ko'rildi. Unga ko'ra, BOLD Systems ning 'Identification' onlayn aniqlagichi nukleotidlari ketma-ketligi Farg'ona vodiysidan qayd etilgan *Eriosoma* namunalarini 98,09-100% holatda *E. lanigerum* bilan, 95,17-95,24% *E. crataegi* bilan, 92,27-92,93% *E. americanum* bilan va 92,25-92,43% *C. nerii* bilan o'xhash ekanligini ko'rsatdi.

BOLD Systemning Neighbor-Joining (NJ) metodi asosida qurilgan 'Tree based Identification' (Distance Model: K2P; Codon Positions: 1st, 2nd, 3rd; Filters: Length>200) dasturi ham bizning namuna *E. lanigerum* ekanligini ko'rsatdi. Namuna nukleotidlari ketma-ketligi Kanadadan qayd etilgan *E. lanigerum* namunalari bilan bir kladadan joy oldi. Umumiy holda BOLD Systems ning turni COI geni nukleotidlari ketma-ketligiga ko'ra aniqlash natijasi 100% aniqlikda *E. lanigerum* bo'ldi (1-rasm).

Identification Summary


Taxonomic Level	Taxon Assignment	Probability of Placement (%)
Phylum	Arthropoda	100
Class	Insecta	100
Order	Hemiptera	100
Family	Aphididae	100
Genus	<i>Eriosoma</i>	100
Species	<i>Eriosoma lanigerum</i>	100

1-rasm. Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidan qayd etilgan *Eriosoma lanigerum* namunasining COI geni nukleotidlari ketma-ketligiga asoslangan holda BOLD Systems dasturida aniqlash natijalari

BIOLOGIYA

BLAST dasturi orqali olingan natijalar ham BOLD dan olingan natijalarni yana bir karra tasdiqladi. Unga ko'ra, Bag'dod tumanidan qayd etilgan *Eriosoma lanigerum* namunasining COI geni nukleotidlari ketma-ketligi MG165215 inventar raqamiga ega Kanadaning Ontario shahridan qayd etilgan *E. lanigerum* bilan o'zaro 100% darajada o'xshash ekanligi ma'lum bo'ldi. Boshqa mintaqalardan qayd etilgan *E. lanigerum* lar bilan esa 98,21-99,85% ko'rsatkichda o'xshashligi ma'lum bo'ldi.

Eriosoma vakillarining NCBI bazasidan yuklab olingan 12 tur (2 kenja tur) turga oid 22 nukleotidlari-ketma-ketligi Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidan qayd etilgan *Eriosoma lanigerum* namunasining COI barkod geni nukleotidlari bilan birlgilikda filogenetik tahlil qilindi. *Aphis nerii* (MN388829) esa tashqi guruh (outgroup) sifatida tanlandi va filogenetik daraxti shakillantirildi.



2-rasm. Farg'ona viloyati Bag'dod tumanidan qayd etilgan *Eriosoma lanigerum* hamda *Eriosoma* urug'i vakillarining o'zaro NJ metodi asosida ishlab chiqilgan filogenetik shajara daraxti.

Filogenetik daraxtda Farg'ona vodiysidan qayd etilgan namunalalar boshqa Filogenetik shajara daraxtida *Eriosoma lanigerum* namunalari umumiy holda bir-biriga qo'shni bo'lgan ikkita kichik kladani tashkil etdi. Bunda kladalar orasida farq K2P bo'yicha 1,7-1,9% ni tashkil etdi.

Farg'ona vodiysidan qayd etilgan *Eriosoma lanigerum* esa Fransiya hamda Kanada hududidan qayd etilgan namunalalar bilan o'zaro 0,3% genetik farqlanishni namoyon qildi. Mazkur farq tur ichidagi (2% dan kam) farqlanish bo'lib, Farg'ona vodiysi hududidagi *Eriosoma* populyatsiyalari *E. lanigerum* turiga mansub ekanligini tasdiqlaydi. Umumiy holda esa *E. lanigerum* kladasi *E. crataegi* bilan qo'shni tur ekanligi ma'lum bo'ldi. Mazkur ikki tur orasidagi genetik masofa (K2P) 4,6-5,1% ni tashkil qildi. *Eriosoma crataegi* ayni vaqtida faqatgina Shimoliy Amerika mintaqasida qayd etilgan (GBIF, 2023). Ushbu holatni *E. lanigerum* ning vatani Shimoliy Amerika ekanligi, Palearktik biogeografik hududga antropogen omil ta'sirida kelib qolganligi bilan izohlash mumkin.

XULOSA

Bizning COI barkod geniga asoslangan filogenetik tahlilimiz davomida *Eriosoma urug'i* vakillari umumiy ikki kladadan joy olishi ma'lum bo'ldi, bunda, *E. lanigerum*, *E. crataegi*, *E. americanum*, *E. ulmi*, *E. patchiae* hamda *E. lanuginosum* lar o'zaro bir kladadan, qolgan barcha turlar – *E. anncharlotteae*, *E. mariokense*, *E. auratum*, *E. harunire*, *E. japonicum* hamda *E. yangi* kabi turlar ikkinchi kladadan joy oldi. Vaholanki, mazkur urug' vakillarining 52 morfologik belgisiga asoslangan filogenetik tahliliga bag'ishlangan tadqiqot ishida, urug' vakillari orasida umumiy holdagi ikkiga ajralish divergensiysi qayd etilmagan edi [7]. Mazkur holatga yanada aniqlashtirish uchun urug' vakillarini boshqa mitoxondrial genlar yoki yadro barkod genlari bilan o'zaro filogenetik tahlil etib ko'rish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Яхонтов.В.В., Ўрта Осиё қишлоқ хўжалиги зааркунандалари. "Ўрта ва олий мактаб" давлат нашриёти. ЎзССР-1962. 499 -500 б
2. Roberto.B , Archana.S., A chromosome-level genome assembly of the woolly apple aphid, *Eriosoma lanigerum* Hausmann (Hemiptera: Aphididae). Article type : Resource Article. 2021 Jan;21(1):316-326.
3. Hebert P.D.N., Cywinska A., Ball S.L., deWaard J.R. Biological identifications through DNA barcodes. Proceedings of the Royal Society B: Biological Sciences, 2003. Vol. 270(1512), – P. 313-321.
4. Basic Local Alignment Search Tool - <https://blast.ncbi.nlm.nih.gov/Blast.cgi> (murojaat etilgan sana: 24.09.2023)
5. Barcode of Life Data System - <http://www.boldsystems.org/index.php> (murojaat etilgan sana: 24.09.2023)
6. Rambaut, A. FigTree v1.4.4 (2018-11-25), a graphical viewer of phylogenetic trees. <http://tree.bio.ed.ac.uk/software/figtree/> (murojaat etilgan sana: 24.09.2023)
7. Sano & Akimoto., Morphological phylogeny of gall-forming aphids of the tribe Eriosomatini (Aphididae: Eriosomatinae). *Systematic Entomology* (2011), **36**, 607–627.